(3). Maxmudova, M., & Ummatkulova, C. (2024). Til o‘qitishda podkastlar orqali talabalarning to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, p. 271–276. https://doi.org/10.2024/tmbye104

(4). Toshtemirova Zebiniso Farhodjon kizi, & Rakhmatov Islombek Quldosh o‘g‘li. (2024). Innovate approach and world experience in foreign languge teaching. "Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(12), p. 220–225. https://doi.org/10.5281/zenodo.14542812

(5). Ummatkulova Charos, (2023). Advantages of integrating podcasts in the english language classroom. American Journal of Philological Sciences, 3(12), p. 37–44. https://doi.org/10.37547/ajps/Volume03Issue 12-07

(6). Umurzakova, A. (2024). Zamonaviy ta'limda pedagogika va chet tillarini o‘qitishning innovatsion metodlari. "Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(1), p. 598–601. Retrieved from https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/315.

(7). Yeh, Hui-Chin & Chang, Wei-yu & Chen, H. & Heng, L. (2021). Effects of podcast-making on college students' English speaking skills in higher education. Educational Technology Research and Development. 69.10. 1007/s11423-021-10026-3.

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

TALABALARDA XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari o‘tkazilgan tadqiqotning eksperimental usulida natijalar, ta'lim samaradorligi batafsil, ketma-ket izchil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, ta'lim, tarbiya, jarayon, innovatsiya, texnologiya, xalq hunarmandchiligi, ijtimoiy, kompetensiya, pedagogik, shart-sharoit, eksperimental, tadqiqot, natija.*

Эсанова Сарвиноз Уктамовна (преподаватель института предпринимательства и педагогики Денова; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ НАРОДНОГО РЕМЕСЛА

Аннотация. *В статье подробно, последовательно и содержательно изложены результаты и педагогическая эффективность проведенного экспериментального исследования психолого-педагогических условий развития социальных компетенций учащихся в сфере народных промыслов.*

Ключевые слова: *студент, образование, воспитание, процесс, инновация, технология, народные промыслы, социальный, компетентность, педагогический, условия, экспериментальный, исследование, результат.*

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denova Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Teacher at the Department of Preschool Education; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL COMPETENCIES IN FOLK HANDICRAFTS

Annotation. *The article describes in detail, sequentially and consistently, the results and educational effectiveness of the experimental research conducted on the psychological and pedagogical conditions for the development of students' social competencies in folk crafts.*

Keywords: *student, education, upbringing, process, innovation, technology, folk crafts, social, competence, pedagogical, conditions, experimental, research, result.*

Kirish. Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi nafaqat milliy merosning ajralmas qismi, balki yosh avlodni tarbiyalash va ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy hunarmandchilik qadriyatlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki talabalarning ijodiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ta'lim berish jarayoni talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kompetensiyalar jumlasiga jamoa bilan ishlash, madaniy merosni qadrlash, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va kasbiy rivojlanish kabi ko‘nikmalar kiradi. Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi orqali talabalar ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – xalq hunarmandchiligi asosida talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali psixologik-pedagogik modellarini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Xalq hunarmandchiligi ta'limining ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash.
2. Talabalarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha ta'lim olish jarayonida duch keladigan psixologik va pedagogik omillarni tahlil qilish.
3. Xalq hunarmandchiligi asosida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni tavsiya etish.

Tadqiqot xalq hunarmandchiligining ta'lim jarayonidagi o'rnini chuqur tahlil qilib, uning ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan. Mazkur maqola pedagogika fanining nazariy va amaliy jihatlarini o'z ichiga olib, xalq hunarmandchiligi bo'yicha ta'lim jarayonini takomil+lashtirishga doir ilmiy tavsiyalarni ilgari suradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarda xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish psixologik, pedagogik va metodik jihatdan chuqur tadqiqot talab qiladigan jarayondir. Xalq hunarmandchiligi nafaqat moddiy madaniyat yodgorligi, balki ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. A.X.Xolmirzayev (2021) o'z tadqiqotida xalq hunarmandchiligi an'analarining yosh avlod ijtimoiylashuvidagi rolini tahlil qilib, ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar rivojiga ta'sirini yoritgan [1].

Tadqiqotchilar xalq hunarmandchiligi asosida o'quv jarayonini tashkil etish ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etishadi. Shuningdek, xalq hunarmandchiligi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, talabalar tomonidan tezroq va samaraliroq o'zlashtirilishi kuzatilgan [2].

Psixologik nuqtayi nazardan ijtimoiy kompetensiyalar shaxsning jamiyat bilan o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini ifodalaydi. V.G.Leontyevning (2018) fikriga ko'ra, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida individual psixologik xususiyatlar inobatga olinishi kerak [3]. Shuningdek, S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ijtimoiy o'rganish jarayoni orqali kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari yoritilgan [4].

M.S.Saidov (2022) psixologik shart-sharoitlarning ta'sirini tahlil qilgan holda, xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanish talabalarning kommunikativ qobiliyatlari va ijodiy tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [5].

Ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini o'rgatishning samarali usullaridan biri amaliy mashg'ulotlarga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligiga oid darslarda loyihaviy va modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi orqali ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni pedagogik, psixologik va metodik asoslarga ega. Mavzuga oid tadqiqotlar xalq hunarmandchiligining ta'lim jarayonida qo'llanilishi talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda talabalarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar o'rganildi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi (1,2,3,4,5-jadvallar):

1-jadval

Tadqiqot metodlari

Metod	Tavsif	Tadqiqotda qo'llanilishi
Nazariy tahlil	Ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar va qonun hujjatlari o'rganiladi.	Xalq hunarmandchiligi va ijtimoiy kompetensiyalar haqida ilmiy manbalar tahlil qilindi.
Anketalar va testlar	Talabalar bilim va ijtimoiy kompetensiyalarini baholash uchun savollar tuzildi.	Dastlabki va yakuniy baholash orqali metodikaning samaradorligi aniqlandi.
Eksperimental tadqiqot	Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi.	Talabalarning hunarmandchilik sohasida ijtimoiy kompetensiya larining shakllanishi kuzatildi.
Suhbat va kuzatuv	Talabalarning motivatsiyasi faoliyatidagi o'zgarishlar baholandi.	Mashg'ulotlar jarayonida ularning faolligi va ishtiyoqi kuzatildi.
Matematik-statistik tahlil	Ma'lumotlar qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi baholandi.	O'rtacha ballar o'sish foizlari va samaradorlik ko'rsatkichlari chiqarildi.

2-jadval

Tadqiqot ishtirokchilari

Guruh	Ishtirokchilar soni	Xususiyatlari
Eksperimental guruh	25 nafar talaba	Xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitilgan talabalar
Nazorat guruhi	25 nafar talaba	An’anaviy ta’lim metodlari asosida o‘qitilgan talabalar

3-jadval

Tadqiqot bosqichlari

Bosqich	Amalga oshirilgan ishlar
1-bosqich: Dastlabki diagnostika	Talabalar bilim va ijtimoiy kompetensiyalarini baholash uchun test va savolnomalar o‘tkazildi.
2-bosqich: Eksperimental ta’lim	Eksperimental guruhda xalq hunarmandchiligi asosidata’lim berildi, nazorat guruhi odatiy usulda o‘qitildi.
3-bosqich: Yakunlovchi baholash	Guruhlar natijalari taqqoslanib, ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishi tahlil qilindi.

4-jadval

Eksperimental dastur mazmuni

Ta’lim shakli	Qo‘llaniladigan usul	Talabalar uchun natija
Amaliy mashg‘ulotlar	Hunarmandchilik buyumlarini yaratish, dizayn va bezak san’ati bilan tanishish	Ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.
Jamoaviy loyihalar	Talabalar kichik guruhlarda ishlashdi	Hamkorlikda ishlash va kommunikativ qobiliyat rivojlanadi.
Innovatsion texnologiyalar	Multimediya vositalar, virtual ekskursiyalar	Talabalarning motivatsiyasi oshadi.

5-jadval

Ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni tahlil qilish

Tahlil usuli	Tavsif
Oddiy o‘rtacha ballni hisoblash	Dastlabki va yakuniy test natijalari taqqoslanib, metodikaning samaradorligi baholandi
Foiz orqali o‘sishni aniqlash	Talabalarning natijalaridagi o‘sish foizi hisobida aniqlandi
Diagrammalar va grafiklar	Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari vizuallashtirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy baholash natijalarini tahlil qilish orqali aniqlangan. Quyidagi bo‘limda olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar bilan qayta ishlanib, natijalarning ilmiy asoslanganligi ta’minlangan.

Eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki natijalari. Tadqiqot boshida ikkala guruh talabalarining bilim va ijtimoiy kompetensiyalari bo‘yicha natijalari deyarli teng bo‘lgan. Quyidagi jadvalda dastlabki test natijalari ko‘rsatilgan (6-jadval).

6-jadval

Guruh	O‘rtacha ball	Standart og‘ish	Minimal ball	Maksimal ball
Eksperimental guruh	60	5.2	50	70
Nazorat guruhi	60	5.5	49	72

Dastlabki test natijalari ikkala guruhda ham deyarli bir xil ekanligi, talabalar bilim darajasi va ijtimoiy kompetensiyalarida katta farq yo‘qligini ko‘rsatdi.

Eksperimental va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari. Eksperimental guruhda xalq hunarmandchiligi asosida ta’lim olib borilgandan so‘ng, talabalar natijalari sezilarli darajada yaxshilandi. Nazorat guruhida esa o‘zgarish unchalik katta bo‘lmadi (7-jadval).

7-jadval

Guruh	Dastlabki test o‘rtacha ball	Yakuniy test o‘rtacha ball	O‘sish foizi (%)
Eksperimental guruh	60	85	41.7%
Nazorat guruhi	60	71	18.3%

Eksperimental guruhda talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari quyidagi ijobiy natijalarga olib keldi:

1. Talabalarning amaliy bilim va ko‘nikmalari oshdi.

O‘zlari hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali kasbiy va shaxsiy rivojlanishga erishishdi.

2. Ijtimoiy kompetensiyalari rivojlandi.

Guruh bo‘lib ishlash, loyihalarni muhokama qilish, an’anaviy va zamonaviy hunarmandchilik usullarini taqqoslash orqali talabalar ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdi.

3. Motivatsiya va faollik ortdi.

Interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish natijasida talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishdi.

4. Nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farq paydo bo‘ldi.

Oddiy an’anaviy ta’lim metodlari bilan shug‘ullangan nazorat guruhi talabalarida bu kabi sezilarli natijalar kuzatilmadi.

Xulosa. Talabalarning xalq hunarmandchiligi oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda psixologik-pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda kommunikativ qobiliyat, ijodiy tafakkur va kasbiy ko‘nikmalar shakllanadi.

2. Amaliy mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar va innovatsion texnologiyalar orqali o‘qitish talabalar motivatsiyasini oshiradi.

3. Hunarmandchilik buyumlarini yaratish orqali talabalarning kasbiy mahorati rivojlanadi. Guruhda ishlash orqali muloqot ko‘nikmalariri mustahkamlanadi.

4. An’anaviy va innovatsion yondashuvlar integratsiyasining ahamiyati oshkor etiladi. Xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitish dasturlariga amaliy mashg‘ulotlar ko‘proq kiritilish maqsadga muvofiq.

5. Talabalar bilan mustaqil ijodiy faoliyat olib borish uchun maxsus mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Tavsiyalar.

1. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali hunarmandchilik mahsulotlarini ommalashtirish va bozorda tanitish lozim. Hunarmandchilik festivallari va ko‘rgazmalarida faol ishtirok etish talabalar uchun katta tajriba beradi. Kelajakda ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish va turli yosh toifalarida ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanishini o‘rganish maqsadga muvofiq.

2. Hunarmandchilik ta’limining psixologik ta’siri bo‘yicha chuqur tadqiqot olib borish lozim.

3. Turli hududlarda (shahar va qishloq joylarida) xalq hunarmandchiligi ta’limining samaradorligini solishtirish maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari xalq hunarmandchiligi asosida o‘qitish ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ekanligini isbotladi.

Eksperimental guruhdagi talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ushbu yondashuv ta’lim tizimida qo‘llansa, talabalarning kasbiy mahorati va ijtimoiy faolligi yanada rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Axmedova S. O‘zbek xalq hunarmandchiligi tarixi. Toshkent, “Fan”, 2019, 145-bet.

(2). Rasulov O. Hunarmandchilik va kasb-hunar ta’limi. Samarqand, “Ziyo nashr”, 2021, 213-bet.

(3). Nizomov T. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish asoslari. Buxoro, “Ilm Ziyo”, 2020, 178-bet.

(4). Karimova G. Ijtimoiy kompetensiyalar va kasbiy rivojlanish. O‘zbekiston pedagogika jurnali. 2022, 3-son, 61-bet.

(5). Xasanov B. Xalq hunarmandchiligi metodologiyasi va innovatsiyalar. Toshkent, Innovatsiya nashr, 2023, 201-bet.

Xasanova Xurshida (Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc); x-xasanova1989@inbox.uz)

KIMYO FANINI O‘QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA REFLEKSIYADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Rivojlanayotgan zamonamizda to‘laqonli hayot kechirishda, turmushda yuzaga kelayotgan turli muammolarni bartaraf etishda, atrofimizda mavjud bo‘lgan ko‘plab moddalardan foydalanish jarayonida kimyoviy bilimlarning o‘rni kattadir. Kimyo fanidan ilmiy bilimlarning fundamental asoslari umumta’lim maktablarida kimyo darslarida shakllantiriladi. Kimyo fanidan maktab dasturida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, muammoli masalalar, qiziqarli tajribalar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari mavjud bo‘lgan fanni o‘zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Fanni oson tushunish va o‘zlashtirishda refleksiyaning ahamiyati kattadir. Ushbu maqolada refleksiya, uning kimyo fanidan mavzularning mazmunini tushunish va anglashdagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mulohaza, refleksiya, yondashuv, tizimlilik, integratsiya, amaliyot, muammoli masalalar,o‘zlashtirish, tajriba, dastur, modda.*